



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITSION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	



INVESTITSION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH

Baymanova Mavlyuda Djurayevna

Angren universiteti o'qituvchisi,
mavlyudabaymanova@gmail.com

Abdullaeva Shohista

Angren Universiteti o'qituvchisi,
sohistaa67@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada investitsion portfellarni shakllantirish, baholash va samarali boshqarish jarayonlari tahlil qilinadi. Portfellarni shakllantirishda aktivlarning turli xilligini hisobga olish, risklarni diversifikatsiya qilish va investorning maqsadlariga mos keladigan strategiyalarni tanlash muhimdir. Shuningdek, maqolada portfellarni baholash usullari, jumladan, daromad va xavf ko'rsatkichlari, Sharpe koeffitsienti va beta ko'rsatkichlari kabi moliyaviy metrikalar tahlil qilinadi. Portfellarni boshqarish jarayoni doimiy monitoring, risklarni nazorat qilish va bozor sharoitlariga moslashtirilgan qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali boshqarilgan portfel investorlar uchun yuqori daromad va barqarorlikni ta'minlaydi, shu bilan birga risklarni minimallashtiradi. Maqola investitsion faoliyatda nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Investitsion portfel, portfelni shakllantirish, portfelni baholash, portfelni boshqarish, diversifikatsiya, risk, daromad, moliyaviy metrikalar.

Abstract. This article analyzes the processes of forming, evaluating and effectively managing investment portfolios. When forming portfolios, it is important to take into account the diversity of assets, diversify risks and choose strategies that meet the investor's goals. The article also analyzes methods for evaluating portfolios, including financial metrics such as return and risk indicators, Sharpe ratio and beta indicators. The process of portfolio management involves constant monitoring, risk control and decision-making adapted to market conditions. The results of the study show that an effectively managed portfolio provides investors with high returns and stability, while minimizing risks. The article is aimed at combining theoretical knowledge with practical experience in investment activities.

Key words: Investment portfolio, portfolio formation, portfolio evaluation, portfolio management, diversification, risk, return, financial metrics.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы формирования, оценки и эффективного управления инвестиционными портфелями. При формировании портфелей важно учитывать диверсификацию активов, диверсифицировать риски и выбирать стратегии, отвечающие целям инвестора. В статье также анализируются методы оценки портфелей, включая финансовые показатели, такие как показатели доходности и риска, коэффициент Шарпа и бета-коэффициенты. Процесс управления портфелем включает постоянный мониторинг, контроль рисков и принятие решений, адаптированных к рыночным условиям. Результаты исследования показывают, что эффективно управляемый портфель обеспечивает инвесторам высокую доходность и стабильность при минимизации рисков. Цель статьи – сочетание теоретических знаний с практическим опытом в инвестиционной деятельности.

Ключевые слова: Инвестиционный портфель, формирование портфеля, оценка портфеля, управление портфелем, диверсификация, риск, доходность, финансовые показатели.

KIRISH

Investitsion portfellarni shakllantirish, baholash va boshqarish zamonaviy moliya tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Investorlar uchun portfelni samarali boshqarish nafaqat daromadni oshirish, balki risklarni minimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda global moliya bozorlarining murakkablashuvi va aktivlar turlarining ko'pligi investitsion qarorlarni qabul qilish jarayonini yanada



murakkablashtirdi. Shu sababli investorlar va moliya menejerlari portfel strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda zamonaviy amaliy metodlardan foydalanishga majbur bo'lmoqda.

Investitsion portfel, asosan, turli aktivlar—aksiyalar, obligatsiyalar, moliya vositalari, ko'chmas mulk va boshqa investitsion instrumentlardan tashkil topgan majmua sifatida qaraladi. Portfelni shakllantirish jarayonida aktivlarning turli xil bo'lishi, ya'ni diversifikatsiya, investorning maqsadlari, investitsion strategiyasi va riskga chidamliligiga mos keladigan investitsion kombinatsiyalarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya qilinmagan portfel katta riskga ega bo'lib, bozor o'zgarishlariga sezuvchanlikni oshiradi va investor uchun zarar xavfini oshiradi. Shu sababli samarali portfel strategiyasi riskni kamaytirish va daromadni barqaror taqsimlashga yo'naltiriladi [1].

Portfelni baholash—investitsion qarorlarni qabul qilishning muhim qismi bo'lib, bunda portfelning rentabelligi va risk darajasi o'rganiladi. Bunda daromadning o'rtacha qiymati, dispersiya, beta koeffitsienti, Sharpe koeffitsienti va boshqa moliyaviy metrikalar tahlil qilinadi. Masalan, Sharpe koeffitsienti portfelning riskga nisbatan daromadligini baholash imkonini beradi va investitsion strategiyani yaxshilashga yordam beradi. Shu bilan birga, beta koeffitsienti portfelning bozor o'zgarishlariga sezuvchanligini ko'rsatadi, bu esa risklarni aniqlash va boshqarishda muhim rol o'ynaydi [2].

Portfelni boshqarish jarayoni doimiy monitoring, aktivlarni qayta balanslash, risklarni nazorat qilish va bozor sharoitlariga moslashtirilgan qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi. Samarali boshqariladigan portfel nafaqat yuqori daromad keltiradi, balki bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga tez moslashish imkonini ham beradi. Moliyaviy menejerlar va investitsion kompaniyalar zamonaviy texnologiyalar, jumladan, portfelni optimallashtirish algoritmlari va moliyaviy modellarni qo'llash orqali portfellarning samaradorligini oshiradilar. Shu bilan birga, investorning shaxsiy maqsadlari va xavfga nisbatan chidamliligi hisobga olinadi, bu esa portfelni individual xususiyatlarga moslashtirishga imkon beradi [3].

Bugungi kunda investitsion faoliyatda raqamli texnologiyalar va moliyaviy tahlilning o'sishi investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy moliya bozorlarida avtomatlashtirilgan portfel boshqaruv tizimlari va raqamli platformalar orqali investitsiyalarni kuzatish, baholash va tahlil qilish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, global bozorlarning dinamikasi va aktivlar narxlarining o'zgaruvchanligi investorlar uchun portfel strategiyasini doimiy ravishda yangilab turishni talab qiladi.

Investitsion portfellarni shakllantirish, baholash va boshqarish investorlar va moliya menejerlari uchun murakkab, ammo muhim jarayon hisoblanadi. Portfelning samarali strategiyasi investorlar uchun barqaror daromad, risklarni minimallashtirish va bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Shu bois, ushbu mavzu ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, moliya bozorlarida strategik qarorlar qabul qilishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi [4].

Global tajribadan ko'rinishicha, diversifikatsiya qilingan portfellar bozor turg'unligi va o'zgaruvchan sharoitlarda barqaror daromad ko'rsatadi. Misol uchun, ikki aktivli portfel strukturasi bilan bog'liq bir nazariy misolda har bir aktivning kutilayotgan daromadi 17,5% bo'lishiga qaramay, aktivlar korrelyatsiyasi past bo'lsa, portfelning standart og'ishliligi 15%gacha pasayishi mumkin, bu esa riskni sezilarli darajada kamaytiradi.

Portfelni baholash jarayoni statistik va moliyaviy ko'rsatkichlar orqali amalga oshiriladi. Portfel daromadining o'rtacha qiymati, dispersiya, standart og'ishliligi va Sharpe koeffitsienti investitsion strategiyani tanlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Sharpe koeffitsienti riskga nisbatan qo'lga kiritilgan daromadni o'lchaydi va investitsiya samaradorligini baholashda keng qo'llaniladi. Yaxshi diversifikatsiya qilingan portfelda Sharpe koeffitsienti yuqoriroq bo'lishi kutiladi, bu esa riskni hisobga olgan holatda yuqori daromad olish imkonini beradi [5].

O'zbekiston sharoitida investitsion portfel tahlillari ham mavjud. Masalan, ayrim sharoitli portfellarda umumiy risk darajasi 1,01% atrofida bo'lishiga qaramay, kutilayotgan daromad manfiy bo'lishi (ya'ni -0,02%) ko'rilgan, bu investorlar uchun riskning daromaddan yuqori ekanini ko'rsatadi. Bu holatlar aktivlarning to'g'ri tanlanishi va diversifikatsiya strategiyasining muhimligini yana bir bor isbotlaydi [6].

Portfel boshqaruvchilari o'z investitsiya strategiyalarini shakllantirishda statistik ma'lumotlar, riskdaromad tahlillari va zamonaviy moliyaviy modellardan foydalanadilar. Shu bilan birga, texnologik yechimlar, xususan raqamli portfel boshqaruv platformalari va avtomatlashtirilgan tizimlar investitsiya jarayonini samarali qilmoqda. Natijada, yaxshilangan diversifikatsiya, bozor sharoitlariga tez moslashish va ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish investorlar uchun barqaror daromad olish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion portfellarni shakllantirish va boshqarish bo'yicha ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borgan. Harry Markovits portfel nazariyasini yaratgan va investorlar uchun risk va daromadni optimal muvozanatlashning ahamiyatini ta'kidlagan. U portfel diversifikatsiyasi orqali risklarni kamaytirish mumkinligini ko'rsatgan va samarali portfel kontseptsiyasini ishlab chiqqan. Markovitsning fikricha, aktivlar orasidagi korrelyatsiyani pasaytirish orqali investorlar o'z risklarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, u samarali chegara



kontseptsiyasini ishlab chiqib, investorlar uchun kutilayotgan daromad va risk darajasiga mos strategiyalarni tanlashni ta'kidlagan.

William Sharpe esa portfel samaradorligini baholashda Sharpe koeffitsientini joriy etgan. U fikricha, investorlar portfelning riskga nisbatan daromadligini baholash uchun Sharpe koeffitsientidan foydalanishlari kerak. Bu ko'rsatkich investorlar uchun riskni hisobga olgan holda optimal daromad olish imkonini beradi. Sharpe shuningdek, portfel tahlilida diversifikatsiya va riskni minimallashtirishning muhimligini ta'kidlagan [7].

John Lintner va Fischer Black portfel boshqaruvi va kapital aktivlar modeli (CAPM) bo'yicha muhim hissa qo'shgan olimlardir. Ularning fikricha, portfelning bozor bilan bog'liqligi, ya'ni beta koeffitsienti, investorlar uchun riskni baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ular bozor xavfini va portfelning moslashuvchanligini tahlil qilish orqali investitsiya qarorlarini optimallashtirish mumkinligini ta'kidlagan [8].

Eugene Fama va Kenneth French esa bozor samaradorligi va portfel diversifikatsiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ular bozor samaradorligi nazariyasini ilgari surib, aktivlar narxlar bozor tomonidan tezkor va to'liq aks etishini ta'kidlagan. Shu bilan birga, ular portfel tarkibidagi aktivlar orasidagi diversifikatsiya investorlar uchun daromad va riskni muvozanatlashda muhim vosita ekanligini ko'rsatgan [9].

Elton va Gruber investitsion portfelni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilgan olimlardir. Ular portfel tarkibida turli aktivlarni birlashtirish, riskni kamaytirish va daromadni maksimal darajaga ko'tarish strategiyasini ishlab chiqqan. Shu bilan birga, ular portfelni boshqarish jarayonida moliyaviy metrikalar va statistik ko'rsatkichlardan foydalanishning ahamiyatini ta'kidlagan.

Bodie, Kane va Marcus olimlari ham portfel boshqaruvi, diversifikatsiya va investitsion strategiyalarni tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlarida, portfelning samaradorligini oshirish uchun riskni baholash, aktivlar orasidagi korrelyatsiyani aniqlash va optimal kombinatsiyalarni tanlash zarurligi ko'rsatilgan. Shuningdek, ular portfelni boshqarish jarayonida investorning maqsadlari, vaqt horizonti va riskga nisbatan chidamliligini hisobga olishning muhimligini ta'kidlagan [10].

Shuningdek, Sharpe, Markovits va Elton-Gruberning tadqiqotlari ko'rsatadiki, investitsion portfellarni shakllantirish va boshqarish jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish muhimdir. Portfel tarkibidagi aktivlarni tahlil qilish, diversifikatsiyani ta'minlash, risk va daromadni baholash, shuningdek, bozor sharoitlariga mos strategiyalarni ishlab chiqish zamonaviy investitsiya faoliyati uchun asosiy talablar hisoblanadi [11].

Adabiyotlar sharhi ko'rsatadiki, investitsion portfellarni shakllantirish, baholash va boshqarish jarayoni ko'plab olimlarning nazariy va amaliy tadqiqotlariga asoslanadi. Ular portfel diversifikatsiyasi, riskni baholash va moliyaviy metrikalardan foydalanish orqali investitsiya samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqqan. Shu bilan birga, ularning tadqiqotlari investorlar uchun optimal qarorlar qabul qilish va bozor sharoitlariga moslashuvchan investitsiya strategiyalarini yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda investitsion portfellarni shakllantirish va diversifikatsiya qilish jarayonlari nazariy asoslarda tahlil qilindi. Portfel samaradorligini baholash uchun moliyaviy metrikalar, jumladan Sharpe koeffitsienti, beta koeffitsienti va dispersiya ishlatildi. Bozor sharoitlari va risklarni aniqlash uchun statistika va tarixiy bozor ma'lumotlari asosida hisob-kitoblari o'tkazildi. Turli aktivlar kombinatsiyasi va investitsion strategiyalar taqqoslandi va ularning samaradorligi aniqlashga harakat qilindi. Natijalar portfel daromadlari, risk darajalari va boshqaruv strategiyalari kontekstida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Investitsion portfellarni shakllantirish va boshqarish jarayoni statistik tahlil va moliyaviy metrikalarga asoslanadi, bu esa investorlarning riskdaromad balansini aniq baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, portfel diversifikatsiyasi investorlar uchun o'rtacha daromadni sezilarli darajada barqarorlashtiradi va riskni kamaytiradi. Turli aktivlar aralashmasidan tashkil topgan portfelda riskning (standart og'ishligi) pasayishi va Sharpe koeffitsientining oshishi kuzatiladi, bu esa investorlar uchun yaxshiroq riskkeltirilgan natija beradi. Masalan, balanslangan portfel uchun o'rtacha Sharpe koeffitsienti 1,07 atrofida bo'lib, konservativ portfel ham shunga yaqin ko'rsatkichlar bilan baholangan. Bu investorlar uchun riskni hisobga olgan holda optimal daromad olish imkoniyatini ko'rsatadi.

Portfel samaradorligini baholashda Sharpe koeffitsienti muhim indikator sifatida xizmat qiladi. Sharpe koeffitsienti yuqori bo'lsa, portfel riskga nisbatan yuqori daromad keltiradi. Bu ko'rsatkich, ayniqsa, nol xavfli aktiv bilan solishtirganda foydani aniqlashda muhimdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya strategiyalari bevosita portfel riskini pasaytiradi. Optimal diversifikatsiya strategiyasida umumiy portfel riskining taxminan 8,5% ga pasayishi va portfel daromadining 9,2% ga oshishi kuzatilgan, bu esa investorlar uchun riskdaromad profilining yaxshilanishini bildiradi.



Bozor sharoitlarining o'zgaruvchanligi investorlar uchun portfelni boshqarishda muhim omil hisoblanadi. Yuqori riskli aktivlarga haddan tashqari egalik qilish investorlarning diversifikatsiya sinovidan muvaffaqiyatsiz chiqishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, riskga sezgir investorlarning 86% uchun bu strategiya xavfli bo'ladi. Shu sababli aktivlarni turli bozor segmentlariga to'g'ri taqsimlash va diversifikatsiya strategiyalarini amalga oshirish zarur.

Beta koeffitsiyenti portfelning bozor o'zgarishlariga nisbatan sezgirligini baholash uchun muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Portfel beta qiymati 1 dan yuqori bo'lsa, u bozor bilan solishtirganda yuqori o'zgaruvchanlikka ega; aksincha, 1 dan past beta esa bozor o'zgarishlariga kam sezgir ekanligini bildiradi. Bu ko'rsatkich investorlar uchun riskni boshqarish va optimal portfel strategiyasini tanlashda asos bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, turli aktivlar kombinatsiyasi investorlar uchun umumiy riskni pasaytiradi va daromadning barqarorligini oshiradi. Masalan, portfelda aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar aralashmasi bilan tuzilgan strategiyada risk daromad nisbati sezilarli darajada yaxshilanadi (1-rasm).



1-rasm. Turli investitsion portfellarning daromad va risk ko'rsatkichlari [12]

Ushbu diagramma turli investitsion portfellarning daromad va risk ko'rsatkichlarini vizual tarzda taqdim etadi. Ko'rinib turibdiki, yuqori riskli portfel eng yuqori daromadni 14,3% bilan ta'minlaydi, ammo standart og'ishlilik 15,8% bo'lib, investor uchun sezilarli riskni bildiradi. Balanslangan portfel 9,2% daromad bilan o'rtacha risk ko'rsatkichini 8,5% ga ega, bu esa investor uchun optimal muvozanatni ta'minlaydi. Konservativ portfel 6,5% daromad bilan eng past riskni 4,8% ga ega bo'lib, xavfsiz investitsiya variantini ifodalaydi. Diversifikatsiyalangan portfel esa 10,1% daromad bilan 7,2% standart og'ishlilikka ega bo'lib, eng yuqori Sharpe koeffitsiyenti 1,15 bilan portfel samaradorligini ko'rsatadi. Diagramma tahlili shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya investorlar uchun nafaqat riskni kamaytirish, balki barqaror daromad olish imkonini ham beradi. Shu bilan birga, diagramma investorlar uchun turli portfel turlarini tezkor solishtirish va ularning riskdaromad profilini aniqlashda qulay vosita hisoblanadi. Portfel tanlash jarayonida investorga individual riskga chidamlilik va investitsion maqsadlar asosida qaror qabul qilish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida portfel tahlillari ham diversifikatsiya va statistik yondashuvning muhimligini ko'rsatadi. Ayrim portfellar uchun umumiy risk darajasi taxminan 1% atrofida bo'lishiga qaramay, kutilayotgan daromad salbiy bo'lishi (masalan -0,02%) kuzatilgan, bu esa portfel tarkibini to'g'ri tanlash va diversifikatsiya strategiyasini joriy etish zaruratini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, portfel boshqaruvchilari statistik tahlil, Sharpe va beta koeffitsientlari hamda diversifikatsiya tamoyillaridan foydalanib, investitsion qarorlarni optimallashtiradilar.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, investitsion portfelni shakllantirish va boshqarishda statistik metrikalar investorlar uchun riskni yaxshiroq tushunishga va optimal qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Turli aktivlardan tashkil topgan portfel riskni kamaytiradi, bozor o'zgarishlariga tez moslashuvchan qarorlar qabul qilish imkonini beradi va daromadni barqarorlashtiradi. Shu bilan birga, statistik metrikalar investitsion strategiyalarning samaradorligini qiyoslashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa investitsion portfel boshqaruvida aniq statistik yondashuvning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi va investorlar uchun barqaror daromad olish imkonini oshiradi (1-jadval).



Jadval 1: Turli investitsion portfellarning asosiy ko'rsatkichlari

Portfel turi	O'rtacha daromad (%)	Standart og'ishlilik (%)	Sharpe koeffitsienti	Beta
Balanslangan	9,2	8,5	1,07	0,95
Konservativ	6,5	4,8	1,02	0,60
Yuqori riskli	14,3	15,8	0,91	1,25
Diversifikatsiyalangan	10,1	7,2	1,15	0,85

Ushbu jadval turli investitsion portfellarning samaradorligini ko'rsatadi. Balanslangan portfel o'rtacha daromadi 9,2% bo'lib, standart og'ishliliigi 8,5% ga teng. Bu portfel Sharpe koeffitsiyenti 1,07 bilan yuqori riskga nisbatan barqaror daromad taqdim etadi va beta koeffitsiyenti 0,95 bilan bozor o'zgarishlariga yaqin darajada moslashuvchanligini bildiradi. Konservativ portfel esa pastroq daromad (6,5%) va standart og'ishlilik (4,8%) bilan riskni minimallashtiradi, Sharpe koeffitsiyenti 1,02 bo'lib, xavfsiz investitsiya uchun qulay variant sifatida qaraladi. Yuqori riskli portfel 14,3% daromad keltiradi, ammo standart og'ishlilik 15,8% bo'lib, beta koeffitsiyenti 1,25 bilan bozor o'zgarishlariga yuqori sezgir ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Sharpe koeffitsiyenti 0,91 bo'lib, bu riskga nisbatan daromadning pastroq ekanligini bildiradi. Diversifikatsiyalangan portfel esa o'rtacha daromadi 10,1%, standart og'ishlilik 7,2% va Sharpe koeffitsiyenti 1,15 bilan eng optimal balansni taqdim etadi. Beta koeffitsiyenti 0,85 bo'lib, portfel bozor o'zgarishlariga kam sezgir ekanligini bildiradi. Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya portfelning riskini kamaytiradi, daromadni barqarorlashtiradi va bozor sharoitlariga moslashuvchan qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Shu sababli investorlar uchun optimal portfel yaratishda diversifikatsiya va statistik tahlil muhim vosita hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot investitsion portfellarni shakllantirish, baholash va boshqarish jarayonini nazariy va amaliy jihatlar bilan tahlil qildi. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, portfel diversifikatsiyasi investorlar uchun riskni kamaytirish va daromadni barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Statistik metrikalar, xususan Sharpe koeffitsiyenti, beta koeffitsiyenti va standart og'ishlilik, portfel samaradorligini baholash va optimal investitsion qarorlar qabul qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Balanslangan va diversifikatsiyalangan portfellarda daromad va risk o'rtasida muvozanat yuqori bo'lib, bu investorlar uchun xavfsiz va samarali investitsiya strategiyasini yaratish imkonini beradi. Yuqori riskli portfellarda daromad yuqori bo'lsa-da, risk ham sezilarli darajada ortadi, konservativ portfellarda esa daromad nisbatan past, lekin xavfsizlik yuqori bo'ladi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida portfel tahlillari diversifikatsiya va statistik yondashuvning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Umuman olganda, investitsion portfelni shakllantirish va boshqarish jarayonida statistik tahlil va diversifikatsiya strategiyalari investorlar uchun muvaffaqiyatli va barqaror investitsiya natijalarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Markovits H. Portfolio Selection: Efficient Diversification of Investments.
2. Sharpe W. F. Mutual Fund Performance.
3. Lintner J. The Valuation of Risk Assets and the Selection of Risky Investments in Stock Portfolios and Capital Budgets.
4. Black F., Scholes M. The Pricing of Options and Corporate Liabilities.
5. Fama E. F. Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work.
6. French K., Fama E. The Cross-Section of Expected Stock Returns.
7. Elton E., Gruber M. Modern Portfolio Theory and Investment Analysis.
8. Bodie Z., Kane A., Marcus A. Investments.
9. Sharpe W., Alexander G., Bailey J. Investments: Portfolio Theory and Capital Markets.
10. Fabozzi F. J. Handbook of Portfolio Management.
11. Reilly F., Brown K. Investment Analysis and Portfolio Management.
12. Ross S., Westerfield R., Jaffe J. Corporate Finance.
13. Abdivaliyev, S. (2025). THE IMPACT OF INTERNATIONAL TRADE ORGANIZATIONS AND FINANCIAL INSTITUTIONS ON GLOBAL ECONOMY. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(1), 71-75.
14. Xayrullayevich, A. S. (2025). O 'ZBEKISTONNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA KICHIK VA O 'RTA BIZNESNING ROLI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (11), 675-685
15. Abdivaliyev, S. (2025). Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to 'siqlarni bartaraf qilish choralari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 3(4).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>